

Seleksiya guruhidagi sigirlarning sut mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Seleksiya guruhi			
	"nasl o'zagi"		"buqa yetishtiruvchi guruh"	
	X±Sx	Cv,%	X±Sx	Cv,%
Bosh soni	56		9	
Sut miqdori, kg	5098,7±51,6	8,72	6396,5±107,6	9,58
Sut tarkibidagi yog', %	4,15±0,03	1,93	4,16±0,03	1,96
Sut yog'i chiqimi, kg	212,1±3,46	10,6	266,1±5,4	9,2
Tirik vazni, kg	552,5±3,42	4,9	570,0±6,0	3,86
Sutdorlik koeffitsiyenti, kg	922,8±10,6	7,3	1122,2±20,2	5,7

yog' tegishli 0,45 va 0,46 %, sut yog'i chiqimi 93,7 kg (79,1 %) va 147,7 kg (2,25 baorbar) o'zdi. Bu esa bunday sigirlardan kelgusida mahsuldorligi bo'yicha yuqori nasl qiymatiga ega avlod olish imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, tadqiqotlar shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorlik xususiyatlari ko'p jihatdan naslchilik podalarida sun'iy qochirish tarmoqlarida foydalanilayotgan buqalarning genotipiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bunday podalarda jahon genofondigi hos yetakchi davlatlar seleksiyasiga mansub nasldor buqalardan keng foydalanish shvis zotli qoramollarning nasl va

mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirishda muhim o'ringa ega hisoblanadi. Bunday nasldor buqalardan keng foydalanish mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy salohiyatga ega avlod olish, zotni takomillashtirish, sermahsul sutbop podalar yaratish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi.

Xulosa. Shvis zotli qoramollar podasida juftlashda Avstriya, Rossiya seleksiyasiga mansub shvis zotli nasldor buqalar yuqori irsiy salohiyatga va avlodlarining asosiy seleksiya belgilarini yaxshilash xususiyatlariga ega hamda podaning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish sur'atini oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Ashirov M.E., Yo'lchiyev D.Sh. va boshqalar. Yangi liniyalar muhim seleksiya yutug'i. // "Zooveterinariya" jurnali. 2016, № 5, 24-27 b.
2. Егизарян А.В. Отбор быкопроизводящих коров по комплексу признаков с учетом воспроизводительных способностей. Ж. "Зоотехния". Москва, 2011. №5, с. 4-6.
3. Завертяев Б.П., Прохоренко П.Н. Совершенствование системы разведения и селекции молочного скота. Ж. "Зоотехния", Москва, 2000, №8, с. 8-12.
4. Сорокина И.И. Метод разведения по линиям, современное состояние и перспективы развития. Ж. "Зоотехния". Москва, 2009, №10, с. 6-8

UO'T: 636.22./28.082

SHVIS ZOTLI SIGIrlARNING SUT MAHSULDORLIGI KO'RSATKICHLARI

Bahriddinov Fayoziddin Bahriddinovich,
Farg'ona davlat universiteti (DSC) doktranti.

Annotasiya. Yuqori mahsuldor sigirlar podalarini yaratish va takomillashtirishda seleksiya usullarining ahamiyati nihoyatda katta. Bunda sigirlar podalarida maqsadga muvofiq tanlash usullari bilan birga juftlash usullarining ham o'rni nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, bunday podalarni shakllantirishda turli urchitish usullaridan olingan maqbul genotipdagi sigirlardan foydalanish sohani rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: shvis, zot, sigir, sut, yog', eksteryer, tana o'lchami, indeks, urchitish, yelin, nasldor buqa, liniya, oila.

Аннотация. Значение селекционных методов в создании и совершенствовании высокопродуктивных стад коров чрезвычайно велико. При этом роль методов спаривания наряду с целенаправленным отбором в стадах коров считается чрезвычайно важной. Также при формировании таких стад особое значение имеет использование коров оптимального генотипа, полученных различными методами спаривания, для развития отрасли и повышения ее продуктивности.

Ключевые слова: швис, порода, корова, молоко, жир, экстерьер, размер тела, индекс, спаривание, вымя, племенной бык, линия, семья.

Abstract. The importance of breeding methods in the creation and improvement of highly productive herds of cows is extremely high. At the same time, the role of mating methods, along with targeted selection in cow herds, is considered extremely important. Also, when forming such herds, it is of particular importance to use cows of the optimal genotype obtained by various mating methods for the development of the industry and increasing its productivity.

Keywords: schwyz, breed, cow, milk, fat, exterior, body size, index, mating, udder, breeding bull, line, family.

Kirish. Respublikamiz aholisini chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashda qoramolchilikning o'zni nihoyatda katta. Bu tarmoq respublikamizning barcha toifasidagi xo'jaliklarida yetishtirilayotgan sut va go'shtning asosiy ulushini yetkazib beradi. Bugungi kunda aholining ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda qoramolchilikni rivojlantirish, ularning sut va go'sht mahsuldorligini oshirish, seleksiya- naslchilik ishini yaxshilash, sun'iy qochirishni kuchaytirish, qoramollarning yangi sermahsul liniyalarini, oilalarini, tiplarini, yuqori mahsuldor podalarini yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday natijalarga erishishda ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarning ham ahamiyati katta. Chunki aynan ilmiy tadqiqotlar natijasida muhim seleksiya yutuqlariga erishish mumkin, qoramollarning yangi sermahsul liniyalarini, oilalarini, tipini yaratish jarayonini tezlashtirish mumkin.

Olib borilgan keyingi yillardagi tadqiqotlar natijasida va Andijon viloyatining chorvachilik mutaxassislari xamda fermerlari hamkorligida viloyatning naslchilik fermer xo'jaliklari podalarida shvis zotli qoramollarning Emil va Roksi liniyalari tasdiqlanib 2-ta patent olindi, shuningdek joriy hisobot yilida ushbu zotning "Navbahor" oilalari va zot ichidagi yangi tipi yaratildi va tasdiqlandi. Ushbu seleksiya yutuqlaridan unumli foydalanish, ularga mansub sigirlarni asosiy podalarga keng joriy etish sutbop podalarni takomillashtirishda va zotni takomillashtirish sur'atini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi va dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotlarning maqsadi: shvis zotining sut mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy salohiyatga ega sermahsul yangi tipini yaratish hisoblanadi.

Amaliy ahamiyati: tadqiqotlar natijalari shvis zotli qoramollarni irsiy jihatdan takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Sigirlarning yelin shakllariga bog'liqlikda sut mahsuldorligi

Sigirlarning sut mahsuldorligi ko'plab omillar qatorida yelin shakllariga ham bog'liq. Bu bizning tadqiqotlarimizda ham o'z isbotini topdi (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, tossimon yelin shakliga ega sigirlarda sut miqdori kosasimon yelinli sigirlarnikidan 568,8 kg ($R>0,999$), sut yog'i chiqimi 22,7 kg ($R>0,999$), 4%-li sut miqdori 565,2 ($R>0,999$), sutdorlik koeffitsiyenti 58,7 kg ($R>0,999$) yuqori bo'ldi. Tossimon yelinli sigirlarda sut miqdori zotning

andoza talablaridan 2067,3 kg (64,6%), kosasimon yelin shakliga ega sigirlarda 1498,5 kg (46,8%) yuqori bo'ldi.

1-jadval.

Sigirlarning III va undan yuqori laktasiyalarda sut mahsuldorligining yelin shakllariga bog'liqligi

Ko'rsatkichlar	Yelin shakllari	
	tossimon	kosasimon
Bosh soni	15	15
Sut miqdori, kg	5267,3±96,8	4998,5±101,3
Sut tarkibidagi yog', %	4,14±0,03	4,16±0,03
Sut yog'i chiqimi, kg	218,1±4,3	195,4±4,7
4%-li sut miqdori, kg	5451,6±104,5	4886,4±108,1
Sutdorlik koeffitsiyenti, kg	981,4±11,7	922,7±10,9

Shunday qilib, tadqiqotlar sigirlarning sut mahsuldorligi yelin shakllariga ham bog'liqligini ko'rsatdi. Bu esa podada sigirlarning yelin shakllari bo'yicha seleksiya ishlarini olib borish yuqori mahsuldor sutbop podalar yaratishda muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

Sigirlarni ozuqani sut mahsuloti bilan qoplash darajasi va uni pasaytirib borish sut ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi. Bizning tadqiqotlarimizda sigirlar quyidagi ozuqani sut bilan qoplash darajasi bilan tavsiflanadi (2-jadval).

2-jadvaldan ko'rinishicha sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash darajasi ularning sut miqdoriga bog'liq. Jumladan, "buqa yetishtiruvchi guruh" sigirlarida sut miqdorida "nasl o'zagi" guruhidagi tengqurlaridan 25,9% yuqori bo'ldi, lekin ular 1 kg tabiiy yog'lilikda sut ishlab chiqarishga 1,9% va 4%-li sut ishlab chiqarishga ham 1,9% kam ozuqa birligi sarfladilar. Bu ma'lumotlar sut mahsuldorligi oshishi bilan uni ishlab chiqarishga sarflanadigan ozuqa miqdori kamayishidan va bu samarali ekanligini dalolat beradi.

Xulosa. Sermahsul sigirlarning seleksiya podasi shakllantirildi. "Nasl o'zagi" dagi sigirlarda mahsuldorlik 4,15% yog'lilikda 5017,5 kg, "buqa yetishtiruvchi guruh"da 4,16% yog'lilikda 6314,4 kg ga barobar bo'ldi va bu sigirlardan mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlari yuqori avlod olindi.

2-jadval.

Sigirlarning III va undan yuqori laktasiyalarda ozuqani sut bilan qoplash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	"Nasl o'zagi" guruhida	"Buqa yetishtiruvchi guruh" sigirlarida
Laktasiya mobaynida 1 sigirga sarflangan ozuqa birligi, kg	5519,2	6819,5
Ishlab chiqarilgan sut, kg	5017,5	6314,4
1 kg tabiiy yog'lilikdagi sog'ib olingan sutga sarflangan ozuqa birligi, kg	1,10	1,08
Ishlab chiqarilgan 4%-li sut miqdori, kg	5205,6	6566,9
1 kg 4%-li sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi, kg	1,06	1,04

ADABIYOTLAR:

1. Абылкасымов Д., Вахонева А., Сударев Н. Тип телосложения и продуктивное долголетие молочных коров. //Молочное и мясное скотоводство. Москва, 2010. -№7. -С.12-15.
2. Анесимова Е., Гостева Е. Биологические особенности и адаптационные качеств симментальского скота разных типов. //Молочное и мясное скотоводство. Москва, 2010.-№2. -С.14-17.
3. Аширов М.Э., Соатов У.Р. Продуктивность коров швиской породы в зависимости от типов телосложения. //Молочное и мясное скотоводство. Москва, 2015. -№6. -С. 21-23.
4. Ashirov M.E., Soatov O., Ashirov B., Nasirdinov Yo. Turli genotipdagi shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorligi. "Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirish va sohada ozuqa bazasini mustahkamlashning ustuvor vazifalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2011. -B. 6-8.
5. Батанов С.Д., Воторопина М.В., Шкарупа Е.И. Продуктивное долголетие и воспроизводительные качества коров черно-пестрой породы отечественной и голландской селекции. //Зоотехния. Москва, 2011. -№3. -С. 2-4.

ИЗУЧЕНИЯ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ НАИБОЛЕЕ ПОДХОДЯЩЕГО МИКРООРГАНИЗМА И ЭНТОМОФАГА ПРОТИВ ХЛОПКОВОЙ СОВКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

¹Хожимурод Кимсанбаев, профессор,

²Нозима Жумаева, докторант,

¹Расул Жумаев, профессор,

¹Шамси Эсанбаев, профессор,

¹Тошкентский государственный аграрный университет,

²Научно-исследовательского института защиты растений и карантин.

Аннотация. В данной статье было изучено микроорганизмы и энтомофаги разных видов. В основном мы определили вид, паразитирующий на хлопковой совке. С помощью этих микроорганизмов на сей день производятся разные биопрепараты против представителей семейства *Lepidoptera*, *Coleoptera*, *Hemiptera*, *Homoptera*, *Diptera*, а также против гребковых и вирусных болезней, широко встречаемых в агробиоценозе.

А также массово размножают микроорганизмов и энтомофагов в лабораторных условиях.

По результатам ученых со всего мира по изучению разновидностей микроорганизмов поражающий представителей семейства *Lepidoptera*. Было изучены следующие виды микроорганизмов *Bacillus thuringiensis*, *Nuclear polyhedrosis*, *Beauveria bassiana*, *Streptomyces avermitilis*, самым распространенным видом в мире считается *Nuclear polyhedrosis* и *Bacillus thuringiensis*, а в Узбекистане *Nuclear polyhedrosis*.

Ключевые слова: *Bacillus thuringiensis*, *Nuclear polyhedrosis*, *Beauveria bassiana*, *Streptomyces avermitilis*, *Helicoverpa armigera*, *Lepidoptera*, *Coleoptera*, *Hemiptera*, *Homoptera*, *Diptera*, хлопковая совка, микроорганизмы, биопрепараты, биоинсектоциды, энтомофаги, *Trichogramma chilonis* Ishii паразиты, хищники, агробиоценоз хлопчатника.

ВВЕДЕНИЕ: Из-за глобального экологического изменения во всем мире, в сельском хозяйстве увеличивается воздействия различных болезней и вредителей на сельхоз культурах. Из-за этого глобальной проблемой является нехватка органических пестицидов. Согласно обеспечению биобезопасности в сельском хозяйстве и растениеводстве необходимо непременно усовершенствовать систему биозащиты от биоповреждений это считается одной из глобальных проблем во всем мире. Основным экспортным сырьем из Узбекистана является хлопок, на сегодняшний день страны импортирующий хлопок более заинтересованы покупать органический продукт. И также это стимулирует фермера выращивать органически чистую продукцию, уменьшением или исключением применением химических препаратов против вредителей сельхоз культур. Химические препараты своевременно наносят вред не только качеству сырья, а также он наносит вред окружающей среде.

Европейское ведомство по безопасности продуктов питания (EFSA) подтвердило токсичность для медоносных пчел. Они поражают центральную нервную систему насекомых, приводят к их параличу и смерти. А также неправильное применение пестицидов приводит к вымиранию на этом участке энтомофагов и микроорганизмов в почве, это приводит к снижению продовольствия на полях. В Испании полностью отказались от химических препаратов и пользуются только биологической защитой [1;4;7].

Для решения этой проблемы разработаны множество видов биологической защиты как применения энтомофагов, создание микробиологических препаратов.

Цель и задача: Изучение широко используемых микроорганизмов и энтомофагов используемых в агробиоценозе против вредителей и болезней.

Определения наиболее подходящего микробиопрепарата

и энтомофага против хлопковой совки в Узбекистане

Изучение: На земной планете Беспозвоночные и микроорганизмы имеют наиболее многочисленные видовые группы.

К микроорганизмам относятся многочисленные и разнообразная группа организмов, из-за своих малых размеров некоторых видов нельзя увидеть невооруженным глазом. Беспозвоночные составляют более 95% всей фауны. Обе группы играют огромную роль в сельском хозяйстве.

На протяжении многих лет ФАО ведет техническую работу в области управления микроорганизмами и беспозвоночными для ведения сельского хозяйства, включая их использование в программах интегрированной защиты растений [1;2;3;6;7].

ФАО также содействует осуществлению двух глобальных инициатив в этой области, реализуемых в рамках Конвенции о биологическом разнообразии: Международной инициативы по сохранению и устойчивому использованию опылителей и Международной инициативы по сохранению и устойчивому использованию почвенного биоразнообразия.

Изготовление микробиологических препаратов на сегодняшний день считается актуальной из-за высокой потребности к ним, а изготовления этих препаратов осуществляются в лабораторных условиях, идентифицируя из насекомого или из почвы разные микроорганизмы. И размножая их на искусственных средах. До сегодняшнего дня было изучено множество полезных микроорганизмов. Они считаются необходимыми обитателями в сельском хозяйстве. С помощью них растения усваивают ему необходимые питательные вещества, а также микроорганизмы борются вредителями и болезнями растений паразитируя на них [1;2;]. (таблица 1).

Это часть видов микроорганизмов, из которых приготавливаются биопрепараты против вредителей и болезней сельскохозяйственных растений. К сожалению для биопрепаратов оптимальной температурой для массового раз-